



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI “KREATIV TEACHER” RAQAMLI TA‘LIM MUHITI ORQALI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYADAN AMALIYOTGA

B.K.Mamadaliyev

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Kreativ Teacher” raqamli ta‘lim muhitining to‘liq mantiqiy zanjiri — nazariy modeldan tortib amaliy-metodik yechimgacha — yaxlit tarzda taqdim etiladi. Maqsad — kreativ qobiliyatning to‘rt komponentli modelini, shu model asosidagi raqamli ta‘lim muhitining funksional tuzilmasini hamda uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim sifatida yoritishdan iborat. Har bir komponent aniq platforma moduli va pedagogik shart bilan bog‘lab ko‘rsatiladi, bu esa nazariy modelning amaliy-metodik yechimga qanday “tarjima qilinganini” izchil kuzatish imkonini beradi. Xulosalar taqdim etilgan modelning ichki mantiqiy izchilligi va amaliy qo‘llanilishga tayyorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:

kreativ qobiliyat, raqamli ta‘lim muhiti, funksional model, pedagogik shart-sharoit, bo‘lajak o‘qituvchi.

Аннотация.

В статье целостно представлена полная логическая цепочка — от теоретической модели до практико-методического решения — цифровой образовательной среды “Kreativ Teacher”, разработанной для развития креативных способностей будущих учителей начальных классов. Цель — представить в виде единой взаимосвязанной системы четырёхкомпонентную модель креативных способностей, функциональную структуру разработанной на её основе цифровой среды, а также педагогические условия её реализации. Каждый компонент соотнесён с конкретным модулем платформы и педагогическим условием, что позволяет последовательно проследить, как теоретическая модель “переведена” в практико-методическое решение. Выводы показывают внутреннюю логическую целостность разработанной модели и её готовность к практическому применению.

Ключевые слова:

креативные способности, цифровая образовательная среда, функциональная модель, педагогическое условие, будущий учитель.

Abstract.

This article presents, as a unified whole, the complete logical chain — from theoretical model to practical-methodological solution — of the “Kreativ Teacher” digital learning environment developed to foster the creative ability of pre-service primary school teachers. The aim is to present, as a single interrelated system, the four-component model of creative ability, the functional structure of the digital environment built on it, and the pedagogical conditions for its implementation. Each component is linked to a specific platform module and pedagogical condition, allowing the reader to trace how the theoretical model was translated into a practical-methodological solution. The findings demonstrate the internal logical coherence of the developed model and its readiness for practical application.

Keywords:

creative ability, digital learning environment, functional model, pedagogical condition, future teacher.

Kirish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki aynan shu qobiliyat orqali ular o‘z o‘quvchilarida ijodiy fikrlash asoslarini shakllantira oladilar. Amaliyot ko‘rsatishicha, bu jarayon ko‘pincha tasodifiy, tizimlashtirilmagan tarzda kechadi: kreativ qobiliyatni rivojlantirish alohida maqsadli metodik ta‘minotga ega bo‘lmasdan, boshqa fanlarni o‘zlashtirish jarayonining yon mahsuli sifatida qoladi.

Raqamli ta‘lim muhitlarining ta‘lim jarayoniga tobora chuqur kirib borishi, bir tomondan, kreativ qobiliyatni rivojlantirish uchun yangi vositalar yaratsa, ikkinchi tomondan, bu vositalarning pedagogik jihatdan qanday loyihalanishi kerakligi haqidagi savolni ham dolzarblashtiradi. Ko‘pincha raqamli platformalar umumiy o‘quv-metodik vosita sifatida

yaratilib, ularning tuzilmasi rivojlantirilishi lozim bo'lgan aniq qobiliyat komponentlariga bevosita moslashtirilmaydi. Natijada platforma funksiyalari bilan pedagogik maqsad o'rtasida aniq mantiqiy bog'liqlik shakllanmay qoladi, bu esa platformaning nazariy jihatdan puxta asoslanmagan, faqat texnik vosita sifatida qo'llanilishiga olib keladi.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi quyidagicha, unda kreativ qobiliyat komponentlari bilan raqamli ta'lim muhiti modullari o'rtasidagi moslik mexanizmi, shuningdek ushbu mexanizmning amalga oshirilishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar birinchi marta yagona, ichki mantiqiy izchillikka ega tizim sifatida taqdim etiladi. Bunday yondashuv raqamli ta'lim muhitlarini loyihalash amaliyotida keng tarqalgan "texnologiyadan pedagogikaga" yondashuvi o'rniga «pedagogikadan texnologiyaga» yondashuvini taklif etadi, ya'ni avval rivojlantirilishi lozim bo'lgan qobiliyatning tarkibiy modeli asoslanadi, so'ngra shu model asosida platforma arxitekturasini shakllantiriladi.

Yuqoridagi muammoni bartaraf etish maqsadida "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani misolida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ qobiliyatini maqsadli rivojlantiruvchi "Kreativ Teacher" raqamli ta'lim muhiti taklif etiladi. Maqolaning maqsadi — asoslangan nazariy model va shu model asosidagi amaliy-metodik yechimni yagona mantiqiy zanjir sifatida — nazariyadan amaliyotgacha — izchil taqdim etishdan iborat, bu esa o'quvchiga taklif etilgan modelning ichki mantiqiy izchilligini to'liq ko'rish imkonini beradi.

KREATIV QOBILIYATNING NAZARIY MODELI VA RAQAMLI MUHITNING FUNKSIONAL TUZILMASI

Bo'lajak o'qituvchining kreativ qobiliyati to'rtta o'zaro bog'liq komponent — motivatsion (kreativ faoliyatga qiziqish va tashabbuskorlik), kognitiv (originallik, moslashuvchanlik, matematik mulohaza), faoliyatli (mustaqil yechim, metodik yangilik) va refleksiv (o'z faoliyatini tahlil qilish) — asosida tarkibiy-funksional model sifatida asoslanadi. Ushbu model "Kreativ Teacher" raqamli ta'lim muhitining loyihalash mantiqini belgilovchi asosiy nazariy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Motivatsion komponent talabaning ijodiy faoliyatga ichki qiziqishi, o'z tashabbusi bilan nostandart yechimlarni izlashga tayyorligi orqali namoyon bo'ladi va boshqa uchta komponentning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi. Kognitiv komponent bevosita fikrlash jarayonining sifat ko'rsatkichlarini — originallik (yangi, kutilmagan g'oyalar yaratish qobiliyati), moslashuvchanlik (turli yechim yo'llarini ko'ra bilish) va matematik mulohaza (fan mazmuniga xos mantiqiy asoslash) — qamrab oladi. Faoliyatli komponent nazariy bilim va kognitiv salohiyatning amaliy ijodiy mahsulotga aylanishini ta'minlaydi, ya'ni talabaning mustaqil yechim topish va metodik jihatdan yangi yondashuvlarni qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiv komponent esa uchala komponentni yopuvchi halqa vazifasini bajaradi: u talabaning o'z ijodiy faoliyati va uning natijalarini tanqidiy tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda keyingi faoliyatini shunga qarab tuzatish qobiliyatidir.

Aytib o'tilgan to'rt komponent bir-biridan ajralgan holda emas, balki tsiklik bog'liqlikda rivojlanadi: motivatsion komponent kognitiv jarayonni ishga tushiradi, kognitiv jarayon

natijasi faoliyatli komponent orqali moddiylashadi, faoliyat natijasi esa refleksiya orqali qayta baholanib, navbatdagi motivatsion turtki uchun asos yaratadi. Aynan shu tsiklik mantiq “Kreativ Teacher” muhitining modulli tuzilmasini loyihalashda asosiy yo‘riqnoma vazifasini o‘tagan. Shuni ham ta’kidlash lozimki, to‘rt komponentning nisbiy og‘irligi talabaning kasbiy shakllanish bosqichiga qarab o‘zgarib turishi mumkin: dastlabki bosqichlarda motivatsion va kognitiv komponentlar ustuvor bo‘lsa, kasbiy tayyorgarlik yakuniga yaqinlashgan sari faoliyatli va refleksiv komponentlarning ahamiyati ortib boradi, bu esa raqamli ta’lim muhitidan foydalanish algoritmining moslashuvchan bo‘lishini talab qiladi.

Shu model asosida ishlab chiqilgan raqamli ta’lim muhiti oltita o‘zaro bog‘liq moduldan — ma’ruza, taqdimot, videodars, amaliy dars, “Kreativ laboratoriya” hamda “Kreativ portfolio” — iborat bo‘lib, har bir modul kreativ qobiliyatning muayyan komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi. Platformadan foydalanish to‘rt bosqichli — motivatsion-maqsadli, nazariy-metodologik, kreativ-amaliy va refleksiv-baholash — algoritm asosida, 15 haftalik o‘quv semestri davomida izchil tashkil etiladi.

1-jadval

Kreativ qobiliyat komponentlari va «Kreativ Teacher» platforma modullarining moslik mexanizmi

Komponent	Asosiy indikator	Platforma moduli	Foydalanish bosqichi
Motivatsion	Qiziqish, tashabbuskorlik	Taqdimot, videodars	Motivatsion-maqsadli
Kognitiv	Originallik, moslashuvchanlik, matematik mulohaza	Ma’ruza, Kreativ laboratoriya	Nazariy-metodologik
Faoliyatli	Mustaqil yechim, metodik yangilik	Amaliy dars, Kreativ laboratoriya	Kreativ-amaliy
Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish	Kreativ portfolio	Refleksiv-baholash

KREATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Kreativ qobiliyatni raqamli ta’lim muhitida rivojlantirishning samaradorligi uchta pedagogik shart-sharoit ta’minlanganda yuqori bo‘ladi: birinchidan, talabaga individuallashtirilgan ta’lim trayektoriyasi va interaktiv kreativ topshiriqlar taqdim etilishi; ikkinchidan, uning ijodiy faoliyati, hamkorligi va o‘z-o‘zini baholashi uzluksiz qo‘llab-quvvatlanishi; uchinchidan, raqamli ta’lim muhitining “Matematika va uni o‘qitish metodikasi” faniga moslashtirilgan bosqichli metodik tizim doirasida qo‘llanilishi. Bu uchta shart amaliyotda mos ravishda “Kreativ laboratoriya”, “Kreativ portfolio” va haftalik tematik-modulli reja orqali ta’minlanadi.

Har bir shart-sharoitning tegishli komponent bilan bog‘liqligi alohida asoslangan: individuallashtirilgan trayektoriya, birinchi navbatda, kognitiv va faoliyatli komponentlarning rivojlanishiga xizmat qiladi, chunki talaba o‘z tayyorgarlik darajasiga mos topshiriqni tanlab,

mustaqil yechim izlash tajribasini to'playdi. Uzluksiz hamkorlik va o'z-o'zini baholash sharti esa, avvalambor, motivatsion va refleksiv komponentlarni qo'llab-quvvatlaydi, chunki mentor va hamkasblar bilan muntazam fikr-mulohaza almashinuvi talabani ijodiy faoliyatga qiziqishini saqlab qolishi va o'z ishini tanqidiy baholashni o'rganishiga xizmat qiladi. Fanga moslashtirilgan bosqichli metodik tizim esa yuqoridagi ikki shartning barcha to'rt komponent bo'yicha muvozanatli tarzda, mavhum emas, balki aniq matematik mazmun doirasida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Alohida ta'kidlash lozimki, uchta shart o'rtasidagi bog'liqlik ierarxik emas, balki tsiklik xarakterga ega: individuallashtirilgan trayektoriya doirasida tanlangan topshiriq hamkorlik va baholash jarayoniga kirish nuqtasini belgilaydi, bu jarayonning natijasi esa keyingi bosqichda talabani individual trayektoriyasini qayta belgilashga xizmat qiladi. Fanga moslashtirilgan metodik tizim esa bu tsiklni vaqt bo'yicha (haftama-hafta) tashkil etuvchi "qobiq" vazifasini bajaradi. Shu tariqa uchta shart alohida-alohida emas, balki o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlovchi yaxlit pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

MODELNI ASOSLASH METODOLOGIYASI

Kreativ qobiliyatning to'rt komponentli modelini asoslashda uch bosqichli mantiqiy yondashuv qo'llanildi. Birinchi bosqichda kreativlik tushunchasining tarkibiy elementlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv jihatlar) nazariy tahlil asosida ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda har bir komponent uchun uni kuzatish va baholash imkonini beruvchi aniq indikatorlar (masalan, kognitiv komponent uchun — originallik, moslashuvchanlik, matematik mulohaza) belgilandi. Uchinchi bosqichda esa har bir komponent-indikator juftligiga mos keluvchi raqamli ta'lim vositasi (platforma moduli) tanlab olindi, bunda tanlov mezonini sifatida modulning tegishli indikatorni bevosita rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi olib qo'yildi.

Bunday "komponent — indikator — modul" ketma-ketligiga asoslangan loyihalash mantiqi raqamli ta'lim muhitini yaratishning ikki muqobil yondashuvidan farq qiladi. Birinchi muqobil yondashuv — mavjud umumiy platformalarni tayyor holda qo'llash, bunda platforma tuzilmasi oldindan berilgan bo'lib, pedagogik maqsad shu tuzilmaga moslashtirilishga majbur bo'ladi. Ikkinchi muqobil yondashuv — platformani faqat texnik-funksional talablar (masalan, foydalanuvchi soni, yuklama tezligi) asosida loyihalash, bunda pedagogik-psixologik asos ikkinchi darajali e'tiborga ega bo'ladi. Taqdim etilgan "komponent — indikator — modul" mantiqi esa pedagogik maqsadni loyihalashning boshlang'ich nuqtasi sifatida belgilab, texnik yechimlarni shu maqsadga xizmat qiluvchi vosita darajasida qoldiradi.

Yuqoridagi mantiqning amaliy ko'rinishini quyidagi misolda kuzatish mumkin: "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fanining "Kasrlar" mavzusi bo'yicha haftalik sikl motivatsion-maqsadli bosqichdan — kasrlar mavzusiga oid hayotiy muammoli vaziyatni aks ettiruvchi qisqa videodars va taqdimot bilan — boshlanadi. So'ngra nazariy-metodologik bosqichda ma'ruza orqali kasrlar ustida amallar bajarishning mazmuniy-metodik asoslari beriladi. Kreativ-amaliy bosqichda talaba "Kreativ laboratoriya" modulida kasrlar mavzusi bo'yicha bir nechta muqobil yechimga ega nostandart masala ustida mustaqil ishlaydi va o'z yechimini amaliy darsda hamkasblari bilan muhokama qiladi. Nihoyat, refleksiv-baholash bosqichida talaba o'z yechimini "Kreativ portfolio"ga yuklab, mentordan olgan fikr-mulohaza

asosida uni takomillashtiradi. Ushbu misol to'rt komponentning bitta mavzu doirasida qanday izchil rivojlantirilishini aniq ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Taqdim etilgan model va funksional tuzilma bir qator ilmiy-amaliy ahamiyatga ega jihatlarni o'zida mujassam etadi. Birinchidan, kreativ qobiliyat komponentlari bilan platforma modullari o'rtasidagi aniq moslik mexanizmi raqamli ta'lim muhitini "umumiy" emas, balki maqsadli-funksional vosita sifatida loyihalash imkonini beradi — bu, o'z navbatida, ko'plab mavjud raqamli platformalarga xos bo'lgan, texnik imkoniyatlarni pedagogik maqsaddan ustun qo'yish muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, taqdim etilgan model "Matematika va uni o'qitish metodikasi" fani bilan chegaralanmagan, universal xarakterga ega: to'rt komponentli tuzilma fan mazmunidan mustaqil holda shakllantirilgan bo'lib, uni boshqa fanlar (masalan, ona tili yoki tabiiy fanlar) doirasida ham moslashtirib qo'llash mumkin. Bunday universallik, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishining ko'p fanli xarakterini hisobga olganda, alohida amaliy qiymatga ega.

Uchinchidan, model va pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro bog'liqligi ularni alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi: agar platforma faqat texnik jihatdan puxta loyihalansa-yu, ammo individuallashtirish, hamkorlik yoki fanga moslashtirish sharti ta'minlanmasa, uning pedagogik salohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu ma'noda taqdim etilgan yondashuv raqamli ta'lim muhitlarini loyihalovchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega: u "qanday funksiyalar kerak" degan texnik savolni emas, balki "har bir funksiya qaysi pedagogik-psixologik mexanizmni ta'minlashi kerak" degan loyihaviy savolni birinchi o'ringa qo'yadi.

To'rtinchidan, taqdim etilgan modelni analogik tuzilmaga ega, ammo boshqa maqsadga (masalan, tanqidiy fikrlash yoki raqamli savodxonlikni rivojlantirishga) yo'naltirilgan raqamli ta'lim muhitlarini loyihalashda ham qo'llash mumkinligini alohida ta'kidlash lozim: bunda faqat to'rt komponent o'rniga tegishli maqsadga mos komponentlar to'plami va ularga mos modullar aniqlanishi kifoya. Bu, o'z navbatida, taqdim etilgan "komponent — indikator — modul" loyihalash mantiqining universal metodologik vosita sifatidagi qimmatini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, taqdim etilgan asoslash nazariy-loyihaviy xarakterga ega ekanini alohida ta'kidlash lozim. Modelning amaliy samaradorligini aniqlash, jumladan har bir pedagogik shartning nisbiy hissasini alohida ajratib o'rganish, maxsus pedagogik tajriba-sinov ishlarini talab qiladi. Bundan tashqari, modelning boshqa fanlar va ta'lim bosqichlari doirasidagi moslashuvchanligini amaliy tekshirish ham alohida ilmiy-metodik ishlanmani taqozo etadi.

XULOSA

Taqdim etilgan to'rt komponentli nazariy model, shu model asosidagi "Kreativ Teacher" raqamli ta'lim muhitining funksional tuzilmasi hamda uni amalga oshirishning uchta pedagogik sharti — bularning barchasi yagona, o'zaro asoslangan ilmiy-amaliy tizimni tashkil etadi. Nazariy model amaliy mahsulotning loyihalash mantiqini belgilaydi, pedagogik shart-sharoitlar esa uning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi. Birinchidan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Matematika va uni o'qitish metodikasi" va unga o'xshash fanlarni o'qitishda taqdim etilgan modelga o'xshash tuzilmaga ega raqamli ta'lim muhitlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, bunda har bir platforma moduli aniq bir qobiliyat komponentiga va pedagogik shartga mos ravishda loyihalaniishi lozim. Ikkinchidan, raqamli ta'lim muhitlarini ishlab chiquvchi mutaxassislar va metodistlarga platforma arxitekturasini loyihalashdan oldin rivojlantirilishi lozim bo'lgan qobiliyat yoki kompetensiyaning komponentli modelini asoslashni, faqat shundan keyingina texnik yechimlarni ishlab chiqishni tavsiya etish o'rinlidir. Uchinchidan, o'qituvchilarni tayyorlash tizimida individuallashtirilgan ta'lim trayektoriyasi, uzluksiz hamkorlik-refleksiya mexanizmlari va fanga moslashtirilgan bosqichli metodika birgalikda, alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida joriy etilishi kerak.

Taqdim etilgan modelning amaliy samaradorligini statistik jihatdan tekshirish, uning boshqa fanlar va ta'lim bosqichlari doirasidagi moslashuvchanligini o'rganish, shuningdek har bir pedagogik shartning kreativ qobiliyat rivojlanishiga qo'shgan nisbiy hissasini alohida ajratib tahlil qilish, shu jumladan uzoq muddatli kuzatuv orqali olingan ko'nikmalarning barqarorligini baholash istiqbolli ilmiy yo'nalishlar sifatida belgilanadi.

Umuman olganda, taqdim etilgan "komponent — indikator — modul" loyihalash mantiqi raqamli ta'lim muhitlarini yaratish sohasida nazariy jihatdan asoslangan, tizimli yondashuvning namunasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday yondashuvning keng qo'llanilishi, oxir-oqibat, raqamli ta'lim vositalarining nafaqat texnik jihatdan zamonaviy, balki pedagogik jihatdan ham puxta asoslangan bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yakun sifatida ta'kidlash joizki, nazariy model bilan amaliy-metodik yechim o'rtasidagi bunday izchil, shaffof bog'liqlik nafaqat muayyan platformaning, balki umuman raqamli ta'lim muhitlarini loyihalash sohasining ilmiy jihatdan yetuklashuviga xizmat qiladigan muhim metodologik yutuq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamildjanovich, M. B. (2025). Amaliy dasturiy vositalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish. *Global Science Review*, 2(1), 57-63.
2. Henriksen D., Mishra P. Learning from Creative Teachers: Harnessing Collective Creativity to Support Design Thinking and Innovation in Education // *TechTrends*. – 2015. – Vol. 59(4). – P. 71-79.
3. Мамадалиев, Б. К. (2025). Совершенствование программного обеспечения для развития творческих способностей будущих учителей начальных классов. *journal of new century innovations*, 71(1), 234-237.
4. Kamildjanovich, M.B. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 1(5), 1-7.
5. Mamadaliyev B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ qobiliyatini raqamli ta'lim muhitida rivojlantirishning nazariy asoslari // *Pedagogik ta'lim*. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 71-77.

MUNDARIJA

Negmatova Arofatxon Muxtarovna

METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR	3	8
---	---	---

Buranova Dilluzaxon Anvarovna

QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA BO'LAJAK AGRAR SOHA MUTAXASSISLARINING MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	9	14
---	---	----

Баранова Татьяна Анатольевна

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТА	15	19
---	----	----

Davlatov U.X., Parmanova P.T., Eshqo'ziyev D.D.

GLOBALASHUV SHAROITIDA OLIY TIBBIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL TAMOIILLARI	20	24
--	----	----

Mo'minova Nilufar Abduvaxobovna

ABDURAHMON SA'DIYNING "ALISHER NAVOIY QARASHLARI" TO'G'RISIDA	25	31
---	----	----

Djalilova Dilnozaxon Obidjanovna

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING GERMENEVTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNING METODIK TA'MINOTI	32	37
--	----	----

Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

FIZIKA FANINI O'QITISHDA ADAPTIV O'QUV TIZIMLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	38	40
--	----	----

Zulunova Mokhlaroym Abdurashid qizi, Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

OLIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISHDA BLENDED LEARNING VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI	41	46
---	----	----

Душабаева Гуласал Муталибовна

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ	47	50
--	----	----

Баранова Татьяна Анатольевна

МЕТОД CASE-STUDY КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	51	56
---	----	----

Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi

TALABALARNING YETAKCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	57	62
--	----	----

B.K.Mamadaliyev

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI "KREATIV TEACHER" RAQAMLI TA'LIM MUHITI ORQALI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYADAN AMALIYOTGA	63	68
---	----	----

